

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.27.06.2017.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**

ESHPUKATOV NODIR MAMATQURBONOVICH

**MEVA VA UZUM SHARBATI ISHLAB CHIQRISHNING ENERGIYA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ELEKTROTEXNOLOGIYASI**

05.05.07. – Qishloq xo'jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalalar

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2019

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**
**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich

Meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish
elektrotexnologiyasi..... 3

Эшпулатов Нодир Маматқурбонвич

Электротехнология повышения энергоэффективности производства сока
плодов и винограда..... 19

Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich

Electrotechnology to increase energy efficiency in the production of grape and
fruit juice..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 40

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.27.06.2017.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**


ESHPULATOV NODIR MAMATQURBONOVICH

**MEVA VA UZUM SHARBATI ISHLAB CHIQARISHNING ENERGIYA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH ELEKTROTEXNOLOGIYASI**

05.05.07. – Qishloq xo'jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalar

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT-20



Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/T1330 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Radjabov Abduraxman
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yusubaliyev Ashirbay
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Olimjon Tursunboyevich
texnika fanlari nomzodi.

Etakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida huzuridagi DSc.27.06.2017.T.10.01 raqamli Ilmiy kengashning 2019 yil 14 dekabr soat 14²⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (+998-71)237-09-45; faks: (+998-71)237-38-79, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (104 -raqami bilan ro'yxatga olingan) (100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (+998-71)237-09-45; faks: (+998-71)237-38-79, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2019 yil « 2 » dekabr kuni tarqatildi.
(2019 yil « 2 » dekabr dagi 27 raqamli reyestr bayonnomasini).



B.S.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

K.D.Astanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi A.f.d., k.i.x.

X.M.Muratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda meva va uzum mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar asosida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb hisoblanadi. «Butun dunyo bo'yicha 2017 yilda 83,14 mln. tonna olma, 74,28 mln. tonna uzum va 4,26 mln. tonna o'rik mahsulotlari yetishtirilganligini hisobga olsak»¹, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarida energiya samarador texnologiyalar va texnik vositalarni qo'llash hamda joriy etish etakchi o'rinni egallamoqda. Shu bilan birga, yetishtirilayotgan meva, poliz va uzum mahsulotlarini qayta ishlashda energiya tejamkor texnologiyalar va texnik vositalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash soxasida meva va uzum sharbati ishlab chiqarish jarayonida olinadigan yakuniy mahsulotga sarflanadigan energiya miqdorini kamaytirish, meva va uzumga elektrotexnologik ishlov berishning samarali usullari va yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada olinadigan sharbat miqdorini ko'paytirish, texnologiyaning energiya sig'imdorligini kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash soxasida kichik zamonaviy texnika va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish»² bo'yicha vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun, jumladan meva va uzumga elektr impulsli ishlov berib presslashda sharbat miqdorini ko'paytirish, bir birlik yakuniy mahsulotga sarflanayotgan energiya miqdorini kamaytirish, olingan sharbatning saqlanish muddatiga ta'sir qiluvchi bakteriyalarni kamaytirish hamda meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samarador elektrotexnologiyasini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz agrar soxasida paxta, don va chorvachilik mahsulotlari bilan bir qatorda katta miqdorda uzum, meva va sabzavot – poliz mahsulotlari yetishtiriladi. O'zbekiston iqlim sharoitida yetishtirilayotgan uzum, meva va poliz – sabzavot mahsulotlar kimyoviy tarkibi va vitaminlarga boyligi va ulardan olinadigan sharbatlarning fiziologik faol moddalar boyligi jixatidan yuqori baxolanadi. O'zbekiston respublikasida 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 9635,1 ming tonna sabzavotlar, 1904,9 ming tonna oziqbop poliz, 2589,7 ming tonna mevalar va rezavorlar, 1564,5 ming tonna uzum

¹ <https://www.statista.com/statistics/264001/worldwide-production-of-fruit-by-variety/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

yig'ib olingan³. Meva va poliz-sabzavot mahsulotlaridan sharbat olishda foydalanib kelinayotgan texnologiyalar yakuniy mahsulotni sifati buzilmasdan uzoq saqlanishini ta'minlash maqsadida turli xil kimyoviy fermentlardan foydalanishni taqozo qiladi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarilgan meva sharbatining ayniqsa bolalar uchun mo'ljallangan sharbat ishlab chiqarishda ekologik tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu borada ham kimyoviy fermentlarsiz yechimlarni izlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017 yil 26 maydagi «2017 - 2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi PQ-3012-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 noyabrdagi 935-son «Respublikada 2019-2020 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlaridagi vazifalarni ilmiy-texnik jihatdan amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» va V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Meva va uzum sharbati ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha Fransiya, AQSh, Rossiya, Moldoviya va boshqa mamlakatlarda A.F.Fang Yung, B. L. Flaumenbaum, A.F. Marx, V.P.Babarin, G.G. Valuyko, V.I. Rogachev, I.A.Rogov, V.N. Golubev, E.S.Gorenkov, A.N. Samsonov, D.K. Tressler, M.A. Djoslin, E.V.Reshetko, V.G.Chebanu, Yu.A.Sheglov, A.Ya.Papchenko, D.S.Djarullayev, M.K. Bologa, L.N.Uzun, V.T.Xristyuk, A.V.Regina kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimizda meva va uzum sharbati ishlab chiqarish muammolarini o'rganish va yechish bo'yicha Yu.M.Prixojko, S.X.Abdurazakova, U.K.Abdullayev, M.M. Mirzayev, X.Abdullayev, V.Ivanchenko, A.Arzumanov, N.Ch.Narkabulova va boshqa olimlar solmoqli hissalarini qo'shganlar.

Meva va uzum tarkibidagi suyuqlik moddalarini chiqarish muammolarini o'rganish va o'simlik materiallariga elektr ishlov berish bo'yicha A.Radjabov, A.Muxammadiyev, X.M.Muratov, E.V.Stativkin, A.Voxidov, O.Axmedov, A.Boqiyevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan meva va sabzavot mahsulotlariga sharbat olishdan oldin elektr va kimyoviy ishlov berish quurilmalari olinadigan sharbat miqdorini ko'paytirishda hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga elektrotexnologik usullar bilan ishlov berishda muayyan ijobiy natijalarga

³ <https://stat.uz/uploads/doklad/2018/yanvar-dekabr/uz/4.pdf>

erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo mazkur tadqiqotlarda meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr impul'sli ishlov berish elektrotexnologiyasi va energiya samaradorligini oshirish masalalari o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'limning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining QXA-9-100 «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning an'anaviy va qayta tiklanuvchi energetik resurslardan kompleks foydalanishga asoslangan energiya-resurs tejankor, ekologik xavfsiz elektrotexnologiyalarini va texnik vositalarini yaratish» (2012-2014) va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №5.10. «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida elektrofizik ta'sirlar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining nazariy asoslari va amaliy yechimlari» (2017-2018) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elektrofizik ta'sirlardan foydalanib meva va uzum sharbati ishlab chiqarishni energiya samarador elektrotexnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'simliklar dunyosiga mansub maxsulotlardan sharbat olishga oid zamonaviy texnologiyalari va texnik vositalarini texnologik va energetik ko'rsatkichlarini o'rganish va taxlil qilish;

meva va uzumga elektr ishlov berish, jumladan, aniqlangan yuqori samarali elektrofizik ta'simi mahsulotga va uni sharbat berish darajasiga ta'siri bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borish;

laboratoriya qurilmasi maketini yaratish va elektr impul'sli ishlov berish jarayoniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarini va o'zgarish chegaralarini eksperimental asoslash;

meva va uzumga elektr impul'sli ishlov berib sharbat olish jarayonini tavsiflovchi matematik modelini eksperimental aniqlash va uning optimal parametrlarini asoslash;

meva va uzum sharbati ishlab chiqish elektrotexnologiyasini tayyor mahsulotni saqlanish muddatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, meva va uzum sharbati ishlab chiqarish jarayonining energiya samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish;

meva va uzum sharbati ishlab chiqish elektrotexnologiyasini amalga oshirish texnik vositasi laboratoriya qurilmasini ishlab chiqish va uni amalda sinab ko'rish;

meva va uzum sharbati ishlab chiqish elektrotexnologiyasi samarasini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti meva va uzumga elektr ishlov berish va sharbat olish jarayonlari va texnik vositalari.

Tadqiqotning predmeti elektr impul'sli ishlov berish parametrlari va meva va uzum xujayralarini jonsizlanishi, ulardan sharbat chiqishi, olingan sharbatni saqlanish muddati orasidagi funksional boqliqliklar va kechish qonuniyatlari.

Tadqiqotning usullari. Turli elektrofizik ishlov berishni meva va uzumdan sharbat olish intensivligiga ta'sirini yuqori samaraligini laboratoriya sharoitida,

maxsus ishlab chiqilgan metodika bo'yicha eksperimental tadqiqotlar asosida o'rganildi. Nazariy tadqiqotlar biologik ob'ektlarga elektrofizik ta'sirlarni o'rganishga oid biofizika qonunlari asosida tadqiqot ob'ekting xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borildi. Elektr ishlov berish rejim va parametrlari maxsus laboratoriya qurilmada aniqlanib natijalariga matematik statistika usullarida ishlov berildi. Elektr ishlov berish energiya manbai parametrlari meva va uzum sharbati olish samarasi bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meva va uzumdan sharbat olishning yuqori energetik ko'rsatkichini ta'minlovchi elektrofizik ta'siri asosida ishlov berishning energiya samarador yangi elektrotexnologiyasi ishlab chiqilgan;

elektr impulsli ishlov berish asosida sharbat ishlab chiqarish elektrotexnologiyasining rejimlari aniqlangan va optimal parametrlari asoslangan;

meva va uzumdan maksimal sharbat ajratib olishni hisobga olgan holda elektr impulsli ishlov berish parametrlari va sharbat ko'rsatkichlari orasidagi funksional bog'liqlik aniqlangan hamda sharbat chiqishini hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

sharbat ishlab chiqarish texnologik liniyasining unumdorligi va energiya sig'imini hisobga olgan holda energiya va iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

meva va uzum sharbati ishlab chiqishini energiya samarador elektrotexnologiyasi va texnik vositasi ishlab chiqilgan;

meva va uzumdan sharbat chiqishini 6-8 % ga oshishini ta'minlaydigan elektr impulsli ishlov berish rejim va parametrlari aniqlangan

yangi elektrotexnologiyani qo'llash bilan 1 tonna sharbat ishlab chiqarishga sarflanayotgan energiya sarfini 15-20 % ga kamayishi va sharbat tarkibidagi saqlanish muddatini qisqarishiga olib keluvchi bakteriyalarni 60 % gacha kamayishi aniqlangan;

elektr impulsli ishlov berib meva va uzum sharbati olish jarayonining optimal parametrlarini aniqlash imkonini beradigan algoritmi va EHM uchun dasturi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi meva va uzumga elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonini tavsiflovchi matematik modellarning adekvatligi, impulsli ishlov berish elektrotexnologiyasidan foydalanib olingan sharbatning mikrobiologik tahlil natijalari va ishlab chiqarish sinov natijalarining laboratoriya tadqiqotlari bilan muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati respublikada meva va uzum sharbati ishlab chiqarish, elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonini tavsiflovchi model ishlab chiqilganligi, sharbatning saqlanish muddatiga elektr impulsli ishlov berishning ta'siri aniqlanganligi, sharbat sifati va miqdoring elektrofizik ta'sirlar natijasida yaxshilanishini ilmiy asoslanganligi, sharbat olishning energiya samarador elektrotexnologiyasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati meva va uzum sharbati ishlab chiqishni energiya samarador elektrotexnologiyasi yaratilganligi, sharbat sifatini yaxshilash va sharbat chiqishini ko'paytirish hamda jarayonning energiya samaradorligini oshirish imkonini beruvchi elektr impulsli ishlov berish rejim va parametrlari aniqlanganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish elektrotexnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berish qurilmasi Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani «Delta Muhandis» MCHJ korxonasi joriy qilingan ("O'zbekoziqovqatxolding" xolding kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2019 yil 23 iyuldagi AC/05-2-1114-sonli ma'lumotnomasi). Natijada meva va uzum sharbati ishlab chiqarishda elektr energiya sarfi 15-20 % ga kamayish imkoni yaratilgan;

meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samarador elektrotexnologiyasi va qurilmasi Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani «Delta muhandis» MCHJ korxonasi olma sharbati ajratib olishda joriy etilgan ("O'zbekoziqovqatxolding" xolding kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2019 yil 23 iyuldagi AC/05-2-1114-sonli ma'lumotnomasi). Natijada olma sharbati ishlab chiqarishni mavjud texnologiyaga nisbatan 6-8 % ga oshishi imkonini bergan;

zararli mikroorganizmlarni kamaytirishni ta'minlaydigan elektr impuls ishlov beruvchi qurilma Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani «Delta Muhandis» MCHJ korxonasi joriy etilgan ("O'zbekoziqovqatxolding" xolding kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2019 yil 23 iyuldagi AC/05-2-1114-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sharbatni pasterizatsiyalash harorati 15 °C ga kamaytirilishi va sharbat ajratib olish 6-8 % oshishi hisobiga yiliga 26911742 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jumladan 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta EHM uchun dastur olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, ularning amaliyotga joriy etilishi bayon qilingan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya

tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Uzum va meva sharbatlari ishlab chiqishning bugungi holati tahlili. Tadqiqot maqsadi va vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi doirasida xorijiy va respublikamizda nashr etilgan adabiy ma'lumotlar sharhlangan. Jumladan, o'simlik mahsulotlari sharbatlari ishlab chiqishning zamonaviy texnologiyalari, o'simlik mahsulotlaridan sharbat olishning zamonaviy usullari va ulardan uzum va meva sharbatlari ishlab chiqarish energetik samaradorligini oshirishda qo'llash imkoniyatlari, uzum va mevalarning sharbat berishini darajasini oshishga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi elektr ta'sir va uni kiritilish usullarini aniqlash bo'yicha dastlabki eksperimentlar natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Elektr impuls ta'sirida uzum va mevalarni sharbat berishini oshishi va sharbatning joriy ko'rsatkichlariga ta'sirini nazariy tadqiq etish**» deb nomlangan ikkinchi bobida meva va uzumdan sharbat chiqishiga ta'sir qiluvchi faktorlar va ularning bog'liqlik ifodalari keltirilgan.

O'simlik xom ashyosining sharbatini ajratish protoplazmaning qovushqoqligi, elastikligi va boshqa xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Protoplazmaning bu ko'rsatkichlari xom ashyoga dastlabki ishlov berish va uni presslash kabi tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini belgilaydi. Protoplazmada dastlabki ishlov natijasida qanchalik katta buzilish ro'y bergan bo'lsa sharbat chiqishi shunchalik ko'p bo'ladi.

B.L.Flaumenbam aniqlashicha xom ashyo to'qimasining tuzilishiga hamda mezzani tayyorlashga qarab sharbat chiqishi quyidagi ifodadan topilishi mumkin

$$B = A(\varphi_1 + \varphi_2)I \cdot K, \quad (1)$$

bunda: B – presslashda sharbat chiqish miqdori, %; A – mevadagi sharbat miqdori; φ_1 va φ_2 - mezga protoplazmasining dastlabki ishlov berish va presslash hisobiga parchalanish darajasi; φ_1 ning qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda o'zgaradi, φ_2 0 dan 0,2 gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi, $\varphi_1 + \varphi_2$ yig'indining qiymati 1 dan oshmaydi; I – sharbatning presslash qoldig'ida siqilib qolishi va mezzaning ivilishi hisobiga vujudga kelgan yo'qotishni hisobga olish koeffitsiyenti ($I = 0,85-0,95$ oralig'ida o'zgaradi); K – mezga skeletining butunlik darajasi (olma, uzum va olcha uchun $K = 0,8-1$ oralig'ida, olxo'ri uchun 0 dan 0,7 gacha bo'lgan oraliqda bo'ladi).

Sharbatning chiqish miqdori asosan qayta ishlanayotgan mevadagi sharbat miqdoriga, xom ashyoga dastlabki ishlov berilganda protoplazmaning buzilish darajasiga, mezga strukturasi, shuningdek press konstruksiyasi va presslash rejimiga bog'liq.

(1)-ifodadagi φ_1 qiymati meva maydalanganda hujayra protoplazmasining 30 % gacha buzilishi aniqlangan. Ushbu ifodadan φ_1 qiymatini presslashdan oldin dastlabki ishlov berish natijasida quyidagicha yozish mumkin:

$$\varphi = \varphi' + \varphi'' \quad (2)$$

bunda: φ_1' - mevani maydalaganda protoplazma qobig'ining buzilish darajasi, 0-0,3 gacha o'zgaradi; φ_1'' - mevani presslashdan oldin elektr impulsli ishlov berish natijasida protoplazma qobig'ining buzilish darajasi, 0,1-0,5 oraliqda o'zgaradi.

(2) ifodani (1) ga qo'yadigan bo'lsak quyidagicha bo'ladi:

$$B = A(\varphi_1' + \varphi_1'' + \varphi_2)IK \quad (3)$$

φ_1'' ning qiymatini aniqlash uchun, elektr impul'sli ishlov berish natijasida shikastlanish darajasi S (0 dan 95 % gacha o'zgaradi) orasidagi bog'liqlikni topish kerak. (3) ifodadagi φ_1'' ning qiymatini aniqlash uchun grafo-analitik usulini taklif etamiz. φ_1'' ning qiymatini $\varphi_1'' = f(S)$ grafikdagi shikastlanish darajasining har bir soni uchun aniqlash mumkin.

Shunday qilib, (3) ifoda elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonini ifodalaydi.

A.Ya.Papchenko, Yu.A.Sheglov va V.G.Chebanular o'simlik mahsulotlaridan elektr ta'sida sharbat chiqish miqdorini (B,%) quyidagicha aniqlagan:

Olma va noklar uchun

$$B = 68 \exp \left[0,01 \left(12 - \sqrt[3]{\frac{500K_T}{T \cdot 0,05t} - p^2 + 5p + 0,16E} \right) \right] \quad (4)$$

Uzum uchun

$$B = 8 \exp \left[0,01 \left(12 - \sqrt[3]{\frac{500K_T}{T \cdot 0,05t} - 0,16E} \right) \right] \quad (5)$$

bunda: p – maydalangan bo'laklar kattaligi, mm; K_T - o'simlik mahsulotlarining tokka chidamlilik koeffitsiyenti, olma uchun – 1, nokda – 1,25, "aleppo"navli uzumda – 0,9, "noa" uzumida – 9, qand lavlagida – 10 ga teng; T – harorat, °C; t – elektr ishlov berish davomiyligi, s; E – elektr maydon kuchlanganligi, V/m.

4 va 5-ifodalar elektr ishlov berish bilan sharbat olish jarayonini tavsiflaydi va aniq holatlar uchun, ya'ni elektr impulsli ishlov berish parametrlari va sharbat chiqishi orasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi. Ushbu ifodalar asosida elektr impul'sli ishlov berish parametrlarini sharbat chiqishiga bog'liqligini aniqlashni talab etadi.

Elektr ishlov berish davomiyligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$t = 3 \cdot 10^3 \rho K_T / (E^3 T) \quad (6)$$

Elektr maydon kuchlanganligi quyidagiga teng buladi:

$$E = \frac{U}{l} \quad (7)$$

Elektr impulsli razryad energiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$W = \frac{1}{2} C U^2, \text{ yoki } U = \sqrt{\frac{2W}{C}} \quad (8)$$

(4)-(8) ifodalarni umumlashtiradigan bo'lsak, sharbat chiqishi quyidagicha bo'ladi:

$$\text{Olma va nok uchun: } B = 68 \exp \left[0,01 \left(12 - \frac{1}{i} \cdot \sqrt{\frac{2W}{C}} \left(\sqrt[3]{\frac{3,3}{\rho}} + 0,16 \right) - p^2 + 5p \right) \right] \quad (9)$$

$$\text{Uzum uchun: } B = 68 \exp \left[0,01 \left(12 - \frac{1}{i} \cdot \sqrt{\frac{2W}{C}} \left(\sqrt[3]{\frac{3,3}{\rho}} + 0,16 \right) \right) \right] \quad (10)$$

(9) va (10) ifodalar meva va uzumdan sharbat chiqishini elektr impulsli ishlov berishga bog'liqligini to'la ifodalaydi.

O'simlik mahsuloti xujayrasi shikastlanish darajasi o'zgarishi va elektr impulsli ishlov berish qonuniyati orasidagi bog'liqlikni aniqlashda elektr impulsli razryadli ishlov berishning asosiy faktorlari (U, C, n) va materialning shikastlanish darajasi S ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash kerak.

A.Radjabov, E.V Stativkin tadqiqotlarida o'simlik materiallariga (mevalar va uzum) elektr impulsli ishlov berish jarayoni tenglamalarini aniqlagan, ya'ni o'simlik materialiga elektr impulsli ishlov berishda ularning shikastlanish darajasini (S) tavsiflagan:

$$S = S_0 e^{-\frac{Q_{e0} n}{K_i}} + S_{\max} \left(1 - e^{-\frac{Q_{e0} n}{K_i}} \right) \quad (11)$$

bunda: S_0 va S_{\max} - o'simlik materiali shikastlanish darajasining boshlang'ich va maksimal qiymati; Q_{e0} - bitta impuls energiyasi, J; n - impuls soni, dona; K_i - avvalgi impulsga nisbatan keyingisida shikastlanish effekti kamayishini xarakterlovchi koeffitsiyent.

(8) ifodani (11) ifodaga qo'yadigan bo'lsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$S = S_0 e^{-\frac{C U^2 n}{2 K_i}} + S_{\max} \left(1 - e^{-\frac{C U^2 n}{2 K_i}} \right) \quad (12)$$

K_i koeffitsientini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu impuls soniga va mahsulot turlariga bog'liq bo'ladi. Eksperimental tadqiqotlar asosida K_i koeffitsientning qiymati olma uchun - 0,12-0,32 o'raliqda, uzum uchun - 0,18-0,38 oraliqda o'zgarishi aniqlandi.

Ushbu ifodadan ko'rinadiki, shikastlanish darajasi razryad kuchlanishi (U), kondensator sig'imi (C), impuls soni (n) ga bog'liqligini ko'rsatadi.


(12) nazariy ifoda meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berishning samaradorligini xarakterlaydi.

Dissertatsiyaning «Uzum va mevalarga elektr ishlov berishni elektrotexnologiyasini eksperimental tadqiq etish, uning rejim va parametrlarini hamda elektrotexnologik asoslash» deb nomlangan uchinchi bobida meva va uzumga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berish rejim va parametrlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Elektr impuls ta'sirini ifodalovchi asosiy faktorlar sifatida quyidagilar qabul


qilindi: razryad hosil qiluvchi kuchlanish (U), kondensator sig‘imi (C) va impulslar soni (n). Elektr impulsli usul samaradorligini baholash va ishlov berilayotgan mahsulotni xarakterlash uchun shikastlanish darajasi (S) qabul qilindi. Uzun va olma mevalari xujayralariga elektr impulsni ifodalovchi faktorlar ta‘sirini o‘rganish klassik usulida amalga oshirildi, ya‘ni faktorlardan birini o‘zgartirib, qolgan ikkita faktorni o‘zgarmas (fiksatsiyalangan) xolatda saqlandi.

Ekspiriment natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berildi. Matematik statistika usullarini qo‘llashda EHM yordamida excel jadval muxarriridagi “Regressiya tahlili” dasturidan foydalanildi.




1-rasm. “Semerenko” navli olma mevasi to‘qimasining shikastlanish darajasini elektr impulsli razryad kuchlanishi bilan bog‘liqligi ($C=0,4$ mkF)

$S = f(U)$ grafiklar tahlilidan quyidagilar aniqlandi. Kuchlanish miqdorini 7-8 kV gacha oshirish bilan olma mevasini shikastlanish darajasi keskin oshadi. Kuchlanish oshishini davom ettirganda shikastlanish effekti kamayadi. Buning asosiy sababi meva yuzasidan oqib o‘tayotgan toklarning qiymati xajmdan o‘tayotgan toklarga nisbatan ancha kattaligidir. Natijada mevaning shikastlanish darajasi keskin kamayadi.



2-rasm. “Semerenko” navli olma mevasi xujayralarining shikastlanish darajasini elektr impulsli razryadlar soni bilan bog‘liqligi

Ekspiriment natijalari tahlilidan quyidagilar aniqlandi: Birlamchi impulsar soni oshishi bilan xujayrani jonsizlanish darajasi intensiv oshadi va impulsar soni ma'lum bir sonlaridan keyin shikastlanish darajasi o'zgarmaydigan holatga kelib qoladi. Bu xolat mevalar xujayralari maksimal jonsizlantirilganligini bildiradi. Hujayralarni to'liq shikastlantirish (o'ldirish) impulsar soni 16-18 larga teng bo'lganda paydo bo'ladi. Shikastlanish darajasini impulsar soni bilan funksional bog'lanishini o'rganishda quyidagi qonuniyatlar aniqlandi. To'qima xujayralari orasida shikastlanish darajasi 90 % oshgan holda elektr impulsar ta'siri to'xtaganidan so'ng ham 10-15 minut davomida xujayralarning shikastlanishi davom etaveradi.



3-rasm. Olma mevasidan sharbat chiqishining bosimga bog'liqlik grafigi

3-rasmidagi grafikdan ko'rinadiki, ma'lum bir bosimning qiymatida ishlov berilgan mevadani ishlov berilmaganiga nisbatan ko'proq sharbat chiqadi. Presslash bosimining kichik qiymatida ham sharbat chiqishini oshirish mumkin.

Meva va uzumga elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonini ifodalovchi matematik modeli quyidagi ko'rinishda olindi:

Olma uchun:

$$y = -1,3U^2 + 0,13P^2 + 18,24U + 0,143n + 4,45C - 2,2325P + 0,095UP + 11,22 \quad (13)$$

Uzum uchun:

$$y = -1,5075U^2 - 0,0583n^2 + 0,62P^2 + 29,575U + 1,6364n - 9,35C - 6,9575P + 0,1875UP + 2,125CP - 62,515 \quad (14)$$

Matematik modelning regression va dispersion tahlillari asosida barcha koeffitsiyentlari ahamiyatga ega va matematik model jarayonni adekvatlik bilan ifodalaydi.

Tadqiqotlar natijasida elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonining quyidagi optimal parametrlari aniqlandi: olma uchun razryad kuchlanishi 7,5 kV, impulsar soni 18 ta, kondensator sig'imi 0,6 mkF, presslash bosimi 10 kg/sm²; uzum uchun razryad kuchlanishi 6 kV, impulsar soni 14 ta, kondensator sig'imi 0,4 mkF, presslash bosimi 8 kg/sm².

Ishlab chiqilgan yangi sharbat olish elektrotexnologik liniyasini yakuniy mahsulot saqlanishi va tarkibidagi mikroorganizmlarga ta'sirini o'rganish bo'yicha ham tadqiqotlar olib borildi.

"Semerenko" navli olma mevasi elektr impulsli razrayad kuchlanishi 7,5 kV va impulslar soni 18 ta, "Toyfi" navli uzum elektr impulsli razrayad kuchlanishi 6 kV va impulslar soni 14 ta bo'lgan parametrdagi ishlov berilib, sharbati presslab olindi. Olingan sharbat tarkibi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti laboratoriyasida mikrobiologik taxlil qilindi. "Mikroorganizmlar fermentlari" laboratoriyasida elektr impulsli ishlov berishni olma va uzum sharbatlariga, sharbatlarni mikroblar peyzaji va mikrotoksik zamburug'lar va biyog'ituvchi qo'zg'atuvchilarini, chirituvchi bakteriyalar sonini e'tiborga olib saqlash muddatlariga ta'siri o'rganildi.

Har ikkala namudagi elektr impulsli ishlov berilgan olma va uzum sharbatlarida Bacillus, Pseudomonas, Staphylococcus turidagi patogen va chirituvchi bakteriyalar, Fusarium solani, Fusarium galena, Fusarium laher, Fusarium melini, Fusarium oxysporium va boshqa turdagi fitopatologik zamburug'lar aniqlanmadi.

Selektiv muhitda har bir guruh mikroorganizmlarida soni va sifatini aniqlashga mo'ljallangan mos ravishdagi mikroorganizmlarni o'sishi va rivojlanishini aniqlashda, elektr impulsli ishlov berilgan namunalarda mikroorganizmlar indeksi (achitqilar, bakteriyalar va mesil zamburug'lar) kamayganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra sharbat tarkibidagi mikroorganizmlar kamaygani kuzatildi. Sharbat tarkibidagi bakteriyalar, zamburug'lar va achitqilar ishlov berilmagan namunaga nisbatan kamaydi. 1-jadvalda 1 ml sharbat tarkibidagi mikroorganizmlar miqdori keltirilgan.

1-jadval.

1 ml sharbat tarkibidagi mikroorganizmlar miqdori

	Bakteriyalar		Achitqilar		Mog'or zamburug'lari	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Olma sharbati						
Ishlov berilmagan	5500	100	40000	100	5000	100
Elektr impulsli ishlov berilgan (7,5 kV, 18 impuls, 0,6 mkF)	1800	32,7	14500	36,25	1100	22
Uzum sharbati						
Ishlov berilmagan	4800	100	36000	100	4300	100
Elektr impulsli ishlov berilgan (6 kV, 16 impuls, 0,4 mkF)	1400	29,1	11500	31,9	860	20

Meva sharbati ishlab chiqarish texnologik liniyasida elektr impulsli ishlov berishni qo'llash issiqlik ishlov berish vaqtini qisqartirish va pasterizatorlarni ish

unumdorligini oshirish imkonini beradi, bu esa tayyor mahsulot sifatini saqlashga olib keladi.

Dissertatsiyaning «Uzum va mevalardan sharbat olish elektrotexnologiyasini ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'rish va samaradorligini baholash» deb nomlangan bo'limida yaratilgan meva va uzum sharbati ishlab chiqarish elektrotexnologiyasini amaliyotda joriy etish bo'yicha ma'lumotlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan, laboratoriya sharoitida olingan natijalar asosida sharbat olishdan oldin elektr ishlov berish qurilmasini loyihalashga texnik topshiriq ishlab chiqildi.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi «Delta Muhandis» MCHJ korxonasi qarashli «AK-SARAY» sharbati ishlab chiqarish texnologik liniyasida ishlab chiqarish sharoitida meva va uzumdan sharbat olishning texnologik rejim va parametrlarini tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Uzum va olma mevasiga elektr impulsli ishlov berilganda sharbat olish jarayoniga ta'siri

№ t/r	Kuchlanish, kV	Impulslar soni, dona	Bosim, kg/sm ²	Olingan sharbat miqdori, %
1	2	3	4	5
"Semerenko" navli olma				
1	kontrol		8	76
2	6	20	4	80
3	6	20	8	82
4	6	20	10	83
5	7,5	20	4	86
6	7,5	20	8	88
7	7,5	20	10	87
8	8	20	4	83
9	8	20	8	84
10	8	20	10	85
"Toyfi" navli uzum				
1	kontrol		6	68
2	6	16	4	76
3	6	16	6	78
4	6	16	10	77
5	7,5	16	4	71
6	7,5	16	6	74
7	7,5	16	10	75
8	8	16	4	74
9	8	16	6	73
10	8	16	10	75

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, elektr impulsli ishlov berilgan olma va uzumdan kontrolga nisbatan 6-8 % gacha ko'p sharbat chiqadi.

Ishlab chiqilgan mevalarga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berish qurilmasi Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi «Delta Muhandis» MCHJ korxonasiga qarashli «AK-SARAY» sharbati ishlab chiqarish texnologik liniyasida sinovdan o'tkazildi. Iqtisodiy samaradorlik sharbat ishlab chiqarishning mavjud texnologiyasi va presslashdan oldin mevalarga elektr impulsli ishlov berish qurilmasini qo'llash orqali yangi texnologiya bo'yicha hisoblandi.

Natijada mavjud va taklif etilayotgan texnologiya bo'yicha 1 tonna sharbat ishlab chiqarish uchun umumiy sarf bo'layotgan elektr energiyasining ekvivalent qiymatini topamiz:

$$W_{el(ekv)1} = W_{el,1} + W_u = 10,605 + 60,6 = 71,205 \frac{kVt \cdot s}{t}$$

$$W_{el(ekv)2} = W_{el} + W_u = 10,395 + 46,6 = 56,995 \frac{kVt \cdot s}{t}$$

Mavjud va taklif etilayotgan texnologiya bo'yicha 1 tonna sharbat ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan solishtirma elektr energiya sarfining farqi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta W = W_1 - W_2 = 71,205 - 56,995 = 14,21 \frac{kVt \cdot s}{t}$$

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi OOO "Delta Muhandis" korxonasiga qarashli «AK-SARAY» sharbati ishlab chiqarish texnologik liniyasi bir yilda o'rtacha 160 tonna meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydi. Elektr impulsli ishlov berish qurilmasini qo'llash natijasida 1 tonna mevdan qo'shimcha 80 litr, umumiy bir mavsumda 12,8 tonna qo'shimcha sharbat ishlab chiqarishini inobatga olib, bugungi kundagi bozor narxida xisoblasak 38400000 so'mga, bundan qurilmani narxi 1200000 so'mni ayirsak 26400000 so'mga teng bo'ladi.

Mevalarga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berish qurilmasini qo'llash natijasi 1546,048 kVt-soat elektr energiya tejab qolishini inobatga olib, bugungi kundagi tarif narxi (331 so'm)ga ko'paytirilsa 511741,888 so'mga teng bo'ladi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra, taklif etilayotgan elektr impulsli ishlov berish qurilmasini amaliyotga qo'llash natijasida bir yil davomida markazlashgan tarmoqdan olish mumkin bo'lgan 1546,048 kVt-soat elektr energiyasini yoki 511741,888 so'm mablag'ni tejaydi va 1 tonna mahsulotdan qo'shimcha 80 litr sharbat yoki 38400000 so'm foyda oladi. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik umumiy 26911742 so'mni tashkil qildi.

XULOSA

«Meva va uzum sharbati ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish elektrotexnologiyasi» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Biologik mahsulotlarga yuqori kuchlanishli impulsli elektr ishlov berish texnologiyasi boshqa elektr ta'sirlarga nisbatan turik xujayralarni shikastlantirish

ANDOROT-RESURS MARKAZI

№ A-171 20... y.

ta'siri yuqori va bunga to'qima va xujayralar orqali qisqa vaqt oralig'ida katta razryad toki o'tishi sababli erishiladi va biologik ob'ektlarga elektrofizik ta'sir ko'rsatish yo'li bilan tirik hujayralarini o'ldirishda yuqori samaraga impulsli energetik ta'sir natijasida erishish mumkinligini ko'rsatadi. Natijada olma va uzumdan sharbat olishni energiya tejammkor elektrotexnologiyasini ishlab chiqish maqsadida uzum va olma mevasiga sharbat olishdan oldin yuqori kuchlanishi elektr impulsli razryad bilan ishlov berish yaxshi samara berishi aniqlandi.

2. Elektr impulsli ishlov berish parametrlari (impuls energiyasi va kondensator sig'imi) bilan sharbat chiqishi orasidagi analitik ifodalar aniqlandi. Natijada, shikastlanish darajasini elektr impulsli ishlov berish parametrlari kondensator sig'imi, razryad kuchlanishi va impulslar soniga bog'liqligi qonuniyati aniqlandi ba meva va uzumdan sharbat olishdan oldin ularga elektr impulsli razryad bilan ishlov berish generatori parametrlarini hisoblash metodikasi ishlab chiqildi.

3. Olma va uzumga elektr impulsli ishlov berishning quyidagi parametrlari aniqlandi: olma uchun $U=7-8$ kV, $C=0,5-0,6$ mkF, $n=16-20$ dona; uzum uchun $U=5-6$ kV, $C=0,3-0,4$ mkF, $n=14-16$ dona. Natijada dastlabki elektr impulsli ishlov berish orqali olma va uzum hujayra to'qimalari maksimal shikastlanishi va sharbat chiqishi ko'payishi hamda presslash bosimi kamayishi aniqlandi.

4. Eksperiment natijalari asosida olma va uzumga elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonining matematik modellari aniqlandi. Yaratilgan matematik modellar asosida olma va uzumga elektr ishlov berib sharbat olish jarayonining optimal parametrlari aniqlandi: olma uchun elektr impulsli razryad kuchlanishi 7,5 kV, impulslar soni 18 dona, kondensator sig'imi 0,6 mkF, presslash bosimi 10 kg/sm²; uzum uchun elektr impulsli razryad kuchlanishi 6 kV, impulslar soni 16 dona, kondensator sig'imi 0,4 mkF, presslash bosimi 8 kg/sm² bo'lganda maksimal sharbat chiqishi ta'minlanadi.

5. Olma va uzumga elektr impulsli ishlov berib olingan sharbat tarkibida ishlov berilmagan sharbatga nisbatan bakteriyalar 71 % ga, achitqilar 69% va mog'or zamburug'lari 80 % ga kamaygani mikrobiologik taxlillar asosida aniqlandi. Natijada olingan sharbatning saqlanish muddatini 12-15 kungacha uzaytirish va pasaterizatsiyalash haroratini amaldagi texnologiyaga nisbatan 15 °C kam bo'lgan haroratda amalga oshirib energiya tejash imkonini bergan.

6. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan sharbat olish texnologiyasini va uni amalga oshirish uchun yaratilgan texnik qurilmani ishlab chiqarish sharoitida joriy etilishi natijasida quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi: mavjud texnologiyaga nisbatan sharbat olishni 6-8 % ga ko'payishini; 1 tonna sharbat ishlab chiqarishga elektr energiya sarfini 15-20 % ga kamayishini; mevalarga sharbat olishdan oldin elektr impulsli ishlov berish natijasida sharbat uzoq muddat saqlanishiga ta'sir qiluvchi mikroorganizmlarning (chirituvchi bakteriyalar, zamburug'lar, achitqilar) 60 % ga kamayishi xisobiga, sharbatni pasterizatsiyalash 70 °C xaroratda amalga oshirilgan va energiya tejash imkonini bergan va iqtisodiy samaradorlik 26911742 so'mni tashkil qilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.27.06.2017.Т.10.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

Эшпулатов Нодир Маматкурбонovich

**ЭЛЕКТРОТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА СОКА ПЛОДОВ И
ВИНОГРАДА**

05.05.07 – «Электротехнологии и электрооборудование в сельском хозяйстве»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2019

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером В2019.3.PhD/Т1330.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета по адресу www.tiame.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Раждабов Абдурахмон**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юсубалиев Аширбай**
доктор технических наук, профессор
Ахмедов Олимжон Турсунбоевич
кандидат технических наук

Ведущая организация: **Ташкентский государственный аграрный университет**

Защита диссертации состоится «14» декабря 2019 г. в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета ДС.27.06.2017.Т.10.01 при Ташкентском институте инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства (Адрес: 100000, г.Ташкент, ул. Кары Ниязи, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-46-68, e-mail: admin@tiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 104). Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Кары Ниязи, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-46-68, e-mail: admin@tiame.uz).

Автореферат диссертации разослан «2» декабря 2019 года.
(протокол рассылки №27 от «2» декабря 2019 г.).



Б.С.Мирзаев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней
доктора наук, д.т.н., профессор

К.Д.Астапуков
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., с.и.с

Х.М.Муратов
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней
доктора наук, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире актуальным является производство высококачественной продукции на основе современных ресурсосберегающих технологий при переработке фруктов и винограда. «В 2017 году в мире произведено 83,14 млн. тонн яблок, 74,28 млн. тонн винограда и 4,26 млн. тонн абрикосной продукции¹», ведущее место занимает внедрения и применения энергоэффективных технологий и технических средств на предприятиях по переработки и хранение этой продукции. В месте с этим, особое внимание обращают на применение энергосберегающих технологий при хранении и переработке выращенной продукции фруктов, бахчевых и винограда.

В мире, важнейшее значение приобретает проведение научно-исследовательских работ направленных разработку эффективных методов и научно-технических решений по электротехнологической обработки фруктов и винограда, снизить энергозатраты на конечный продукции в процессе производства фруктовых и виноградных соков в области переработки сельскохозяйственной продукции. В этом деле увеличение долю получения сока, уменьшение энергоемкости технологии является одним из актуальной задачей.

В республике осуществляется широкие мероприятия по внедрению современной техники и технологии в сфере переработки пищевой продукции сельского хозяйства. В стратегии развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы установлены задачи «Реализация инвестиционных проектов по строительству новых, реконструкции и модернизации действующих перерабатывающих предприятий, оснащенных самым современным высокотехнологичным оборудованием по более глубокой переработке сельхозпродукции, производству полуфабрикатов и готовой пищевой продукции, а также тароупаковочных изделий»². Для осуществления этой задачи, особенно актуальный является задачи в частности, повышения долю сока путем электронимпульсной обработки при прессовании, уменьшение расходуемой долю энергии на единицу итоговой продукции, уменьшение бактерии влияющих на срок хранения получаемого сока и разработка энергоэффективную электротехнологию производства сока плодов и винограда.

В аграрном секторе нашей Республики на ряду с хлопком, зерновыми культурами и продукцией живодноводства в большом количестве производится виноград, фрукты, овощи и бахчевые. Виноград и продукции плодородства и овощеводства полученные в климатических условиях Узбекистана отличаются своим химическим составом и богатством витаминов и высоко ценятся полученные из них соки, как богатые

¹ <https://www.statista.com/statistics/264001/worldwide-production-of-fruit-by-variety/>

² Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, № УП-4947.

физиологически активными веществами. К концу 2018 года в Республике Узбекистан общее производство овощей составило 9635,1 тыс. тонн, 1904,9 тыс. тонн бахчевых, 2589,7 тыс. тонн фруктов и ягод, 1564,5 тыс. тонн винограда³. Технологии производства, используемые для получения фруктово-овощных соков предусматривают применения различных химических ферментов. Эти химические вещества позволяют качественно хранить соки длительное время. Однако они снижают экологическую ценность продукта, что особенно важно при производстве фруктовых соков для детей.

